

BANK TIZIMINING IQTISODIYOTDAGI O‘RNI VA UNI RIVOJLANTIRISHGA DOIR ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR**G‘afforov Muxriddin**

Termiz davlat universiteti magistranti

muxriddingafforov25@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada bank tizimining iqtisodiyotdagi o‘rni va uni rivojlantirishga doir ilmiy-nazariy yondashuvlar tahlil qilingan. Jahon va Markaziy Osiyo mamlakatlari tajribasini o‘rgangan holda bank tizimining iqtisodiy o‘rinishga ta‘siri, moliyaviy vositachilik funksiyasi va kapital oqimini boshqarishdagi ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Maqolada shuningdek, bank tizimini rivojlantirish yo‘lidagi asosiy nazariy modellar, davlat va xususiy banklar o‘rtasidagi nisbat, raqamli transformatsiya va xalqaro integratsiya masalalari muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: bank tizimi, iqtisodiy o‘rsish, moliyaviy vositachilik, davlat banklari, xususiylashtirish, raqamli transformatsiya.

Аннотация. Данная статья анализируется роль банковской системы в экономике и научно-теоретические подходы к ее развитию. Изучая опыт мира и стран Центральной Азии, рассматривается влияние банковской системы на экономический рост, ее роль как финансового посредника и ее значение в управлении потоками капитала. В статье также обсуждаются основные теоретические модели развития банковской системы, взаимоотношения между государственными и частными банками, цифровая трансформация и международная интеграция.

Ключевые слова: банковская система, экономический рост, финансовое посредничество, государственные банки, приватизация, цифровая трансформация.

Abstract. This article analyzes scientific and theoretical approaches to the development of the banking system and its role in the economy. Drawing on international and Central Asian experience, the article examines the influence of the banking system on economic growth, the function of financial intermediation, and its significance in managing capital flows. Key theoretical models of banking development, the balance between state and private banks, digital transformation, and international integration are also discussed.

Key words: banking system, economic growth, financial intermediation, state banks, privatization, digital transformation.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotda bank tizimi iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida tan olingan. Bank tizimi moliyaviy vositachilik orqali jamiyatdagi bo‘sh mablag‘larni samarali investitsiyalarga yo‘naltiradi, iqtisodiy sub‘yektlarning kapitalga bo‘lgan ehtiyojini qondiradi va makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Dunyo mamlakatlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bank tizimi qanchalik rivojlangan va raqobatbardosh bo‘lsa, iqtisodiy o‘rnatilgan sur‘atlari shunchalik yuqori bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida bank tizimi istiqbol yillarida sezilarli rivojlanishga erishdi. 1991-yildan buyon bank tizimida tarkibiy islohotlar amalga oshirildi, banklar soni va aktivlarning hajmi ko‘paydi, yangi moliyaviy mahsulotlar va raqamli xizmatlar joriy etildi. Shu bilan birga, davlat ulushining yuqoriligi, muammoli kreditlarning ko‘payishi, xalqaro bozorga integratsiyaning cheklanganligi kabi dolzarb muammolar hali o‘z yechimini kutmoqda. Maqolaning maqsadi bank tizimining iqtisodiyotdagi o‘rnini nazariy jihatdan asoslash va uni rivojlantirishga doir ilmiy yondashuvlarni tahlil qilishdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bank tizimining iqtisodiyotga ta‘siri masalasi jahon iqtisodiy fanida keng tadqiq etilgan. Tadqiqotchilar ushbu munosabatni ikki asosiy yo‘nalishda o‘rganishgan: (1) moliyaviy rivojlanish iqtisodiy o‘rnatilgan sababchisi sifatida va (2) iqtisodiy o‘rnatilgan moliyaviy rivojlanishni keltirib chiqaruvchi omil sifatida.

Schumpeter (1911) bank tizimini iqtisodiy innovatsiyaning katalizatori sifatida baholagan va banklar tadbirkorlarni moliyalashtirish orqali texnologik taraqqiyotni ta‘minlashini asoslab bergan. Ushbu g‘oya keyinchalik King va Levine (1993) tomonidan empirik jihatdan tasdiqlandi: ular 77 mamlakatda o‘tkazilgan tadqiqotda moliyaviy rivojlanish ko‘rsatkichlari iqtisodiy o‘rnatilgan, kapital to‘planishi va samaradorlik o‘rtasida kuchli musbat korrelyatsiya mavjudligini aniqladi.

Beck, Demirguc-Kunt va Levine (2018) o‘z tadqiqotlarida bank tizimi tuzilishi va moliyaviy institutsiyalarning iqtisodiy o‘rnatilgan ta‘sirini solishtirib tahlil qilishgan. Ular davlatning bank sektoridagi ishtiroki past bo‘lgan mamlakatlarda moliyaviy barqarorlikka erishish imkoniyati yuqoriroq ekanligini ko‘rsatgan.

Mahalliy tadqiqotchilardan Burxanov va Xudoyqulov (2023) O‘zbekiston bank sektorida raqobat muhitining cheklanganligi innovatsion rivojlanishga to‘siq bo‘layotganini ta‘kidlaganlar. Meliyev (2024) esa tijorat banklarida kredit portfeli sifati va risklarni boshqarish tizimining rivojlanmaganligi muammosini o‘rganib, qimmatli qog‘ozlar bozorining yetarli darajada shakllanmaganligi banklarning investitsion imkoniyatlarini cheklab qo‘yayotganini ko‘rsatgan.

Sattarov (2016) tijorat banklari likvidligi va kapital yetarililigiga oid normativ talablarni takomillashtirish, foiz stavkalarini makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan

bog'lash orqali bank tizimining umumiy barqarorligini oshirish mumkinligini asoslab bergan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bank sektoridagi asosiy muammolar xalqaro va mahalliy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Davlat ulushining yuqoriligi, raqobatning sustligi, muammoli kreditlarning ko'pligi va xalqaro integratsiya cheklovlari iqtisodiy rivojlanishga to'sqinlik qilmoqda. Xorijiy olimlarning tadqiqotlari esa xalqaro tajribani mahalliy sharoitga moslashtirish orqali bank tizimining samaradorligini oshirishga yordam berishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada qo'yidagi usullardan foydalanildi: qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya, sintez, shuningdek, moliyaviy tahlil usullari. Manba sifatida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ochiq ma'lumotlari, Jahon banki va Xalqaro valyuta fondining statistik hisobotlari, shuningdek, ilmiy maqolalar va dissertatsiyalardan foydalanilgan.

Taqqoslama tahlil usuli yordamida turli mamlakatlar — xususan, rivojlangan (Germaniya, Chexiya) va rivojlanayotgan (Xitoy, Hindiston, O'zbekiston) davlatlarning bank tizimlari o'zaro solishtirilgan. Bu usul bank sektorida davlat ulushining samaradorlikka ta'sirini, raqamli transformatsiya sur'atlarini va xalqaro integratsiya darajasini qiyosiy baholash imkonini berdi.

Tadqiqotning cheklangan tomoni sifatida shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston bank sektoriga oid ba'zi ma'lumotlar to'liq ochiq shaklda mavjud emas, bu esa ayrim ko'rsatkichlarni hisoblashda cheklovlar vujudga keltiradi. Shuningdek, reyting agentliklarining baholarini turli mamlakatlar bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri solishtirish metodologik jihatdan ma'lum darajada murakkablik kasb etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

1. Bank tizimining moliyaviy vositachilik funksiyasi

Bank tizimining bosh funksiyasi — moliyaviy vositachilikdir. Banklar jamiyatdagi vaqtincha bo'sh pul mablag'larini jamlab, ularni real sektordagi iqtisodiy sub'yektlarga kredit shaklida taqdim etadi. Bu orqali iste'mol va ishlab chiqarish o'rtasidagi muvozanat saqlandi, kapital bozorining likvidligi ta'minlanadi.

Moliyaviy vositachilik nazariyasida Diamond (1984) modeli alohida o'rin tutadi. Unga ko'ra, banklar axborot nosimmetriyasi muammosini hal qilish orqali qarz beruvchilar va qarz oluvchilar o'rtasidagi munosabatlarni samarali tashkil etadi. Bank investorlarni kuzatish va monitoring xarajatlarini tejab, mablag'larni optimal taqsimlashni ta'minlaydi.

2. Bank tizimining iqtisodiy o'sishga ta'siri: nazariy modellar

Bank tizimi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi munosabatni tushuntiruvchi bir nechta nazariy model mavjud:

– Ta’minot yetakchi gipoteza (Supply-leading hypothesis): bank tizimi iqtisodiy o‘shidan oldin rivojlanadi va u iqtisodiy faollikni rag‘batlantiradi. Bu model Schumpeter va uning izdoshlari tomonidan asoslanadi.

– Talab yetakchi gipoteza (Demand-following hypothesis): iqtisodiy o‘sh moliyaviy xizmatlar talabini keltirib chiqaradi. Patrick (1966) tomonidan taklif etilgan ushbu ko‘rinishga ko‘ra, rivojlanish jarayonida moliyaviy sektor o‘z-o‘zi kengayadi.

– Ikki tomonlama sabab-oqibat modeli: Robinson (1952) moliyaviy rivojlanish va iqtisodiy o‘sh bir-birini o‘zaro rag‘batlantirishini ko‘rsatgan. Bu ko‘rinish hozirgi zamonda empirik tadqiqotlar bilan ko‘proq tasdiqlangan.

3. Davlat va xususiy banklar o‘rtasidagi nisbat masalasi

Davlat banklari va xususiy banklar o‘rtasidagi nisbat iqtisodiy siyosatning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Jahon tajribasi ko‘rsatadiki, bank sektorida davlatning ulushi qanchalik yuqori bo‘lsa, raqobat muhiti shunchalik zaif bo‘ladi va bu bank tizimi samaradorligiga salbiy ta’sir qiladi. 1-jadvalda turli mamlakatlarda davlat banklarining bank aktivlaridagi ulushi va moliyaviy rivojlanish indeksining o‘zaro bog‘liqligi ko‘rsatilgan:

1-jadval¹

Tanlangan mamlakatlarda davlat banklarining aktivlardagi ulushi va moliyaviy rivojlanish.

Mamlakat	Davlat banklari ulushi, %	Moliyaviy rivojlanish indeksi	YaIM o‘sishi, %
Xitoy	65-70	O‘rta	6.1
Germaniya	40-45	Yuqori	1.5
Hindiston	60-65	O‘rta	6.8
Chexiya	10-15	Yuqori	2.3
O‘zbekiston	67-70	Rivojlanmoqda	5.5

Jadval tahlilidan ko‘rinib turibdiki, davlat banklarining ulushi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda moliyaviy rivojlanish indeksi nisbatan past, raqobatli muhit esa zaif bo‘lmoqda. O‘zbekiston bu jihatdan Xitoy va Hindistonga o‘xshash bo‘lsa-da, moliyaviy rivojlanish darajasi bo‘yicha hali jiddiy salohiyatga ega.

4. Raqamli transformatsiya va bank tizimining kelajagi

¹ Jahon banki va Markaziy bank ma’lumotlari asosida muallif tuzgan.

To‘rtinchi sanoat inqilobi davrida bank tizimining raqamli transformatsiyasi zaruratga aylanmoqda. Sun‘iy intellekt, blokcheyn texnologiyasi va moliyaviy texnologiyalar (fintech) banklar faoliyatini tubdan o‘zgartirmoqda. Raqamli banklar an‘anaviy bank infratuzilmasi xarajatlarini kamaytirgan holda mijozlarga tezroq va arzonroq xizmat ko‘rsatish imkonini beradi.

O‘zbekistonda COVID-19 pandemiyasidan so‘ng raqamli bank xizmatlariga talab keskin oshdi. TBC Bank, Uzumbank, Anorbank kabi to‘liq raqamli banklar bozorga kirishi bank sektorida raqobatni kuchaytirdi va xizmat sifatini yaxshiladi. Biroq yuridik shaxslar uchun masofaviy xizmat ko‘rsatish darajasi hali past bo‘lib qolmoqda.

5. Bank tizimini xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalash

Bank tizimining xalqaro moliya bozorlariga integratsiyasi iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning asosiy sharti hisoblanadi. Xalqaro reyting agentliklari (S&P, Fitch, Moody’s) baholari banklar faoliyatining shaffofligini ta‘minlaydi va investorlar ishonchini oshiradi. O‘zbekiston banklarining ko‘pchiligi hozirda “BB-” spekulativ darajada baholanmoqda, bu esa xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini cheklamoqda.

Xususiylashtirish jarayoni bu borada muhim rol o‘ynaydi. “Ipotekabank” ning 75% aksiyasining Vengriyaning OTP bankiga sotilishi xorijiy kapital kirib kelishining yaxshi misoli bo‘ldi. Bunday tajriba boshqa davlat banklari uchun ham namuna bo‘la oladi. Xususiylashtirish jarayoni 2022-yil dekabrda boshlanib, 2023-yil iyun oyida OTP Group bankning **73,71% ulushini 324 million dollarga** sotib olishi bilan yakunlandi. 2026-yil holatiga ko‘ra, bank o‘z tarixidagi eng yuqori moliyaviy barqarorlik va rentabellik darajalariga erishdi va buni quyidagi 2-jadvalda ko‘rishimiz mumkin.

2-jadval.²

Ipoteka ATBning Vengriya OTP Group banki tomonidan sotib olinishidan oldingi va keyingi moliyaviy holati.

Moliyaviy ko‘rsatkichlar	Vengriya sotib olishidan oldin (2021)	Sotib olishdan keyin (2025 / 2026)	Trend va o‘zgarish
Sof foyda (Yillik)	693,7 mlrd so‘m	1 763 mlrd so‘m (2025)	~2,5 barobarga o‘sdi

² Jadval Ipoteka bank hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

ROE (Kapital rentabelligi)	14,8%	22,4% (2025)/ 25,9% (2026-Q1)	+11,1% darajaga o'sdi
ROA (Aktivlar rentabelligi)	2,04%	3,5% (2025) 4,2% (2026-Q1)	Samaradorlik 2 barobar oshdi
Jami kapital	5,09 trln so'm	9,37 trln so'm (2026-Q1)	Sariq kapital sezilarli mustahkamlandi
Kredit portfeli	28,21 trln so'm	35,6 trln so'm (2025)	Sifatli va diversifikatsiyalangan o'sish

2022-yilgacha bank asosan davlatning ipoteka va uy-joy dasturlariga tayangan, rentabellik darajasi past va kredit portfelida risklar yuqori edi. 2023–2026-yillarda OTP Group tomonidan sotib olingach, bank transformatsiya jarayonini boshladi: davlat mablag'lariga qaramlik kamaydi, xalqaro obligatsiyalar chiqarildi, risk-menejment tizimi yaxshilandi va muammoli kreditlar nazorat ostiga olindi. Natijada xalqaro reytingi "BB-" darajasiga ko'tarildi hamda bank universal raqamli va chakana bank sifatida rivojlandi. Shuningdek, mijozlar sodiqligi indeksi ham sezilarli oshganini bilishimiz mumkin.

XULOSA

Olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni tasdiqlaydiki, bank tizimi zamonaviy bozor iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, u moliyaviy vositachilik mexanizmi orqali jamg'armalarni investitsiyalarga aylantiradi, iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Shu bilan birga, tadqiqot ijobiy o'zgarishlarni ham qayd etadi. Raqamli bank xizmatlarining jadal rivojlanishi, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi banklarning bozorga kirishi va xususiylashtirish sohasidagi dastlabki qadamlar bank tizimida raqobat muhitini kuchaytira boshlaganidan dalolat bermoqda. Ayniqsa, xususiy banklarning bank sektoridagi umumiy foydaning 62,14 foizini egallashi ularning samaradorligi va moslashuvchanligi yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Fikrimizcha, bank tizimining iqtisodiyotdagi o'rnini mustahkamlash, ilmiy-nazariy yondashuvlar asosida uni yanada rivojlantirish hamda yuqori sifatli moliyaviy xizmatlar ko'rsatish orqali iqtisodiy o'sishga qo'shiladigan hissasini oshirish uchun

quyidagilarni amalga oshirish zarur:

– Davlat ulushini kamaytirish va xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirishni davom ettirish zarur.

– Raqamli transformatsiyani chuqurlashtirish, xususan yuridik shaxslar uchun masofaviy xizmatlarni rivojlantirish.

– Xalqaro reyting agentliklari bilan hamkorlikni kengaytirish va banklarning investitsion darajasini oshirish.

– Muammoli kreditlar darajasini pasaytirish uchun ijtimoiy dasturlar bo‘yicha kreditlash mexanizmini qayta ko‘rib chiqish va monitoring tizimini kuchaytirish lozim.

– Bank tizimini jahon moliya bozorlariga integratsiyalash uchun xususiylashtirish sur‘atlarini oshirish va xorijiy investorlar bilan sheriklikni rivojlantirish zarur.

Bank tizimi mamlakat iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o‘ynab, innovatsiyalar va raqobatbardoshlikni oshirish orqali yanada barqarorlikka erishishi zarur. Xususiylashtirish jarayonlarini tezlashtirish, muammoli kreditlar darajasini pasaytirish va raqamli transformatsiyani jadallashtirish bank tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Xalqaro moliya bozorlariga integratsiyani kuchaytirish esa iqtisodiyotga qo‘shimcha investitsiyalarni jalb qilish imkonini beradi. Ushbu islohotlar bank tizimining barqaror va samarali rivojlanishini ta‘minlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Burxanov A. va Xudoyqulov X. (2023). “O‘zbekiston moliya bozorini jahon moliya bozoriga integratsiyalashuvining dolzarb masalalari”, Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali, oktyabr, 10-son.
2. Diamond, D. W. (1984). Financial Intermediation and Delegated Monitoring. *Review of Economic Studies*, 51(3), 393–414.
3. King, R. G. & Levine, R. (1993). Finance and Growth: Schumpeter Might Be Right. *Quarterly Journal of Economics*, 108(3), 717–737.
4. Meliyev J. (2024). “Banklarda likvidlilik muammosi va uni hal qilish yo‘llari”, Moliya va bank ishi jurnali.
5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki (2024). Yillik hisobot — 2023. Toshkent.
6. Patrick, H. T. (1966). Financial Development and Economic Growth in Underdeveloped Countries. *Economic Development and Cultural Change*, 14(2), 174–189.
7. Sattarov O. (2016). Актуальные вопросы обеспечения устойчивости банковской системы Республики Узбекистан. *Банковское дело*, 9, с. 25.
8. Schumpeter, J. A. (1911). *The Theory of Economic Development*. Harvard University Press.
9. Thorsten Beck, Asli Demirguc-Kunt & Ross Levine (2018). Financial Structure and Economic Growth: A Cross-Country Comparison. *Journal of Financial Economics*.